XALQ DEPUTATLARI G‘ALLAOROL TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 13-fevral VII-4-23-3-45-K/25 G‘allaorol tumani

G’allaorol tuman 1-sonli sport maktabiga mablag’ ajratish to’g’risida.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-apreldagi “Ommaviy va professional futbolni har tomonlama rivojlantirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-115-sonli, 2023-yil 3-noyabrdagi “Futbol ta’lim muassasalari tarmog‘ini kengaytirish hamda halqaro standartlarga mos keladigan futbol infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-355-sonli qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-maydagi “Hududiy futbol asatssatsiyalari faoliyatini yanada qo‘llab quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 311-sonli qarori ijrosini ta’minlash uchun 2-tabaqa mehnat jamoalari, havaskor va yarim professional futzal klublari hamda viloyat hududidagi tashkilot, korxona va muassasalar jamoasi o‘rtasida futzal bo‘yicha 2025-yilgi 2-liga viloyat chempionati va “Viloyat hokimi kubogi” musobaqasida qatnashish uchun badal to‘lovini to‘lab berish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6, 25-moddalariga asosan xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari (M.Turdimuratov)ga tuman mahalliy byudjetining 2025-yilboshiga shakllangan erkin qoldiq mablag‘lari hisobidan **15 800,0 (o‘n besh million sakkiz yuz ming) ming.so‘m** mablag‘ni tuman 1-sonli sport maktabiga ajratish vazifasi topshirilsin.

2. Tuman 1-sonli sport maktabi (A.Musulmonov)ga mahalliy byudjetdan ajratilgan **8 000,0 (sakkiz million) ming.so‘m** mablag‘larni viloyat futbol assosiatsiyasining (X/R: 20212000504114246001 MFO: 00122 “Ipoteka bank” Jizzax viloyat bo‘limi INN: 200347772) hisob raqamiga o‘tkazib berish hamda mahalliy byudjetdan ajratilgan **7 800,0 (yetti million sakkiz yuz ming) ming.so‘m** mablag‘lardan maqsadli foydalanish vazifasi topshirilsin.

3. Tuman g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (B.Sattarov)ga mahalliy byudjetdan ajratiladigan mablag‘larni tegishli hisob raqamga o‘z vaqtida moliyalashtirishni ta’minlasin.

4. Ushbu qaror ijrosini nazorat qilish, xalq deputatlari tuman Kengashining “Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish” doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosarlari T.Qo‘chqorov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi  OQBOYEV JALOLITDIN JAMOLOVICH